Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 63
FILOLOGIYA

O'ZBEK TILI OSHPAZLIK NOMLARINING YASALISH, HOSIL BO'LISH XUSUSIYATLARI

Qahramon Kuzimuratovich Ro'ziyev*
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti
✉ roziyevqahramon585@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi oshpazlik nomlarining yasalish va hosil bo'lish xususiyatlari lingvistik hamda lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Oshpazlik leksikasining nominativ, semantik va derivatsion xususiyatlari yoritilib, taom nomlarining affiksatsiya, kompozitsiya, birikmali nominatsiya, o'zlashuv va sheva birliklari asosida shakllanish jarayonlari izohlanadi. Shuningdek, oshpazlik terminlarining tarixiy taraqqiyoti, motivatsiyalangan nominatsiya, etimologik asoslari hamda ularning xalqning madaniyati, urf-odatlari va etnik tafakkuri bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tili oshpazlik leksikasining murakkab derivatsion tizimga ega ekanligini hamda uning milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi muhim leksik qatlamlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

oshpazlik nomlari, so'z yasalishi, nominatsiya, affiksatsiya, kompozitsiya, lingvomadaniyat.

DOI: 10.5281/zenodo.21743033

Kirish.

O'zbek tili leksik tizimida oshpazlikka oid nomlar o'ziga xos semantik va lingvomadaniy qatlam sifatida ajralib turadi. Mazkur qatlam tarkibiga taomlar, ichimliklar, non va un mahsulotlari, sut mahsulotlari, pishirish usullari, oshxona anjomlari hamda ovqat tayyorlash jarayoniga oid turli birliklar kiradi. Ushbu birliklar faqat-gina nominativ vazifani bajarib qolmay, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, xo'jalik faoliyati, urf-odatlari va marosim madaniyatini ham o'zida aks ettiradi. Shu sababli oshpazlik leksikasi tilning oddiy bir qatlami emas, balki milliy madaniyatning til orqali ifodalangan muhim ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Masalan, ayrim taom nomlari muayyan hududiy an'analar yoki marosimlar bilan bevosita bog'langan bo'lib, ular orqali xalqning etnik xotirasi va ijtimoiy tajribasi namoyon bo'ladi. Oshpazlik nomlarini ilmiy jihatdan o'rganishda ularning shakllanish mexanizmlarini aniq ajratish muhimdir. Bu borada ikki asosiy yo'nalishni farqlash zarur:

1) yasalish, ya'ni tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi so'zlarning hosil qilinishi;

2) hosil bo'lish, ya'ni nominatsiya manbalarining kengroq doirasini qamrab oluvchi jarayonlar majmui.

Yasalish jarayonida affiksatsiya va qo'shma so'z yasash kabi vositalar muhim rol o'ynaydi. Masalan, *qovurma, dimlama, qaynatma, qatlama* kabi birliklar fe'l asoslariga ma'lum qo'shimchalar qo'shilishi orqali yuzaga kelgan bo'lib, ular pishirish usulini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydi. Bunday birliklar tilning ichki so'z yasalish tizimi faol ishlayotganini ko'rsatadi. Hosil bo'lish jarayoni esa yanada murakkab va ko'p qatlamli hodisa hisoblanadi. Bu jarayonda tarixiy o'zlashuvlar, til aloqalari, savdo-iqtisodiy aloqalar, madaniy integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, *"palov", "somsa", "lag'mon", "kabob"* kabi taom nomlari o'zbek tiliga turli davrlarda kirib kelgan bo'lib, ular Markaziy Osiyo hududidagi ko'p asrlik madaniy almashinuvlarning mahsulidir. Shu bilan birga, dialektal variantlashuv ham oshpazlik leksikasining boyishida muhim omil sanaladi: bir xil taom turli hududlarda turlicha nomlanishi mumkin, bu esa tilning ichki imkoniyatlarining keng

ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ma’no kengayishi ham ham oshpazlik nomlari shakllanishida sezilarli o‘rin tutadi. Masalan, ayrim so‘zlar dastlab, umumiy ma’noda qo‘llanilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan aniq bir taom yoki mahsulot nomiga aylangan. Shuningdek, ikki yoki undan ortiq so‘zning birikishi natijasida yuzaga kelgan turg‘un birliklar asta-sekin yaxlit leksik birlik sifatida qabul qilinadi. Bu jarayonlar til taraqqiyotining tabiiy bosqichlari bo‘lib, ular orqali oshpazlik leksikasi nafaqat kengayadi, balki semantik jihatdan boyib boradi. Umuman olganda, o‘zbek tilidagi oshpazlik nomlari yasalish va hosil bo‘lish jarayonlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan murakkab tizimni tashkil etadi. Bu tizimni o‘rganish orqali nafaqat tilning leksik va derivatsion imkoniyatlari, balki xalqning tarixiy-madaniy taraqqiyoti, etnik aloqalari va mentaliteti haqida ham muhim xulosalarga kelish mumkin. Shu jihatdan, oshpazlik leksikasi lingvistika, etimologiya va lingvomadaniyatshunoslik kesishgan nuqtada rivojlangan dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri sifatida alohida e’tiborni talab etadi.


Tilshunoslikda nominatsiya tushunchasi muayyan predmet, hodisa, harakat yoki belgi uchun til vositalari orqali nom berish jarayonini anglatadi. Bu jarayon faqat lingvistik emas, balki kognitiv va madaniy asosga ham ega bo‘lib, insonning borliqni idrok etishi, uni tasniflash va umumlashtirish mexanizmlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek tilidagi oshpazlik nomlari nominatsiyaning eng murakkab va ko‘p qatlamli ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Sababi, bunda nomlash odatda yagona belgiga emas, balki bir nechta semantik omillarning uyg‘unligiga tayanadi, ya’ni mahsulot tarkibi, tayyorlash usuli, fizik holati (konsistensiyasi), rangi, ta’mi, tayyorlanish muhiti, hattoki uning ijtimoiy yoki marosimiy vazifasi ham hisobga olinadi. Masalan, *qovurma* nomi bevosita tayyorlash texnologiyasiga, ya’ni qovurish jarayoniga asoslangan bo‘lsa, *shirguruch* birikmasida asosiy omil komponent tarkibi (guruch va shirinlik elementi) bilan belgilanadi. *To‘y oshi* esa sof lingvistik birlikdan ko‘ra kengroq etnografik va funksional yuklamaga ega bo‘lib, uning nomlanishida marosimiy vazifa ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xuddi shuningdek, *qatlama* so‘zi taomning shakliy tuzilishiga, ya’ni qat-qat qilib yoyilgan xamir asosiga tayangan holda yuzaga kelgan. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, oshpazlik nominatsiyasi oddiy nominativ akt emas, balki semantik jihatdan asoslangan murakkab nomlash hodisasidir. Bu holat tilshunoslikda “motivatsiyalangan nominatsiya”[1,256] tushunchasi bilan izohlanadi. Oshpazlik leksikasida motivatsiya darajasi, ayniqsa, yuqori ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Ko‘pgina taom nomlarining ichki formasi, ya’ni so‘zning dastlabki semantik asosini aks ettiruvchi tuzilma aniq sezilib turadi. Bu esa ularni tahlil qilishda faqat morfologik yondashuv yetarli emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, bunday birliklarni kompleks, ya’ni morfologik, semantik va lingvomadaniy yondashuv asosida o‘rganish talab etiladi. Masalan, “*dimlama yoki qaynatma* kabi birliklarda fe’l asosiga qo‘shimcha qo‘shish orqali hosil bo‘lgan yasalish modeli ko‘rinsa, *kabob, lag‘mon* kabi nomlarda esa tarixiy o‘zlashuv va madaniy aloqalar aks etadi”[2,600]. Shu jihatdan oshpazlik terminlari tilning ichki va tashqi rivojlanish omillarini birlashtirgan noyob qatlam hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, shevaga oid materiallar oshpazlik nominatsiyasining yanada boy va rang-barang ekanini namoyon etadi. Ko‘plab hududlarda bir xil yoki o‘xshash taomlar turlicha nomlanadi, bu esa nominatsiyaning lokal tajriba, fonetik o‘zgarishlar va qadimiy so‘z yasash modellari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Masalan, ayrim hududlarda umumadabiy tildagi taom nomining fonetik variantlari yoki mutlaqo boshqa nomlari uchraydi. Bu hodisa tilning dialektal qatlamida qadimgi nominativ modellar saqlanib qolganini va ular orqali xalqning tarixiy-lisoniy xotirasi aks etishini ko‘rsatadi. Shu sababli oshpazlik leksikasini o‘rganishda dialektologik materiallar muhim empirik manba vazifasini bajaradi. Oshpazlik nomlari nominatsiyaning murakkab, ko‘p omilli va yuqori darajada motivatsiyalangan turini tashkil etadi. Ularni o‘rganish orqali nafaqat tilning leksik va semantik tizimi, balki xalqning madaniyati, turmush tarzi va tafakkur modeli haqida ham chuqur ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Bu esa oshpazlik leksikasini lingvistikaning turli yo‘nalishlari kesishgan nuqtadagi muhim tadqiqot obyektiga aylantiradi.

O‘zbek tilidagi oshpazlik leksikasining muhim qatlami tub, tarixan qadimiy birliklardan tarkib topgan va bunday so‘zlar, asosan, umumturkiy leksik fondga mansub bo‘lib, ularning izlari eng qadimgi yozma manbalarda ham uchraydi. Xususan, “Devonu lug‘otit turk” asarida *aš (osh, ovqat), et (go‘sht), süt (sut), yağ (yog‘), qatıq (qatiq)* kabi birliklar qayd etilgani oshpazlik terminologiyasining ildizlari nihoyatda qadimga borib taqalishini ko‘rsatadi [3,369]. Bu hol oshpazlik leksikasi turkiy xalqlarning xo‘jalik faoliyati, chorvachilik va dehqonchilik madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanganini tasdiqlaydi. Shuningdek, qadimgi

turkiy bitiklarda ham oziq-ovqat bilan bog‘liq terminlar uchrashi ushbu qatlamning barqaror va fundamental ekanidan dalolat beradi. Tub oshpazlik nomlarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning morfologik jihatdan sodda, ammo semantik jihatdan murakkab bo‘lishidir. Masalan, *osh* leksemasi dastlab umumiy *“ovqat”* ma’nosini bildirgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan u ma’lum kontekstlarda aniq bir taom, ya’ni palov nomi sifatida ham keng qo‘llangan. Xuddi shuningdek, *non* so‘zi faqat oziq-ovqat mahsulotini emas, balki *“tirikchilik manbai”*, *“rizq”*, *“baraka”* kabi ko‘chma va ramziy ma’nolarni ham anglatadi. Bu kabi semantik kengayish hodisasi tilshunoslikda polisemiya jarayoni bilan izohlanadi va u tilning ichki rivojlanish qonuniyatlariga mos keladi [2,104]. Yana bir misol sifatida *yog‘* so‘zini keltirish mumkin: u bir tomondan oziq-ovqat komponenti bo‘lsa, ikkinchi tomondan boylik va farovonlik timsoli sifatida metaforik ma’nolarda ham qo‘llanadi. Bunday tub birliklar ko‘pincha boshqa so‘zlar uchun asos vazifasini bajaradi va o‘zbek tilining derivatsion tizimida faol qatnashadi. Masalan, *osh* asosidan *oshpaz, oshxona, oshlik, oshxo‘r* kabi birliklar hosil bo‘lgan, *sut* asosidan *sutli, sutdosh, sutchoy* kabi birikmalar shakllangan, *qatiq* asosidan *qatiqli ovqat, qatiqchi, qatiqli osh* kabi hosilalar yuzaga kelgan. Shuningdek, *go‘sht* so‘zidan *go‘shtli, go‘shtxo‘r*, *non* so‘zidan *nonvoy, nonushta* (tarixan “non yeyish” ma’nosidan kelib chiqqan) kabi birliklar hosil bo‘lgan. Bu jarayonlar tilning ichki imkoniyatlari affiksatsiya va so‘z birikmalarining leksikalashuvi orqali amalga oshadi. Qadimiy oshpazlik leksemalarining yana bir muhim jihati shundaki, ular keyingi davrlarda semantik differensatsiya jarayonini ham boshdan kechirgan. Masalan, *sut* umumiy tushuncha bo‘lsa, undan *qatiq, qaymoq, sariyog‘* kabi aniqroq mahsulot nomlari ajralib chiqqan, *go‘sht* tushunchasi esa *qovurma, kabob, sho‘rva* kabi turli pishirish usullari asosida farqlangan taom nomlari bilan boyigan. Bu esa oshpazlik leksikasining faqat statik emas, balki dinamik tizim ekanini, u doimiy ravishda rivojlanib, yangi ma’no va shakllar bilan boyib borishini ko‘rsatadi. Shuningdek, tub birliklarning barqarorligi ularning madaniy ahamiyati bilan ham izohlanadi. Masalan, *osh* nafaqat taom nomi, balki o‘zbek xalqining marosimiy hayotida markaziy o‘rin tutuvchi konseptlardan biridir. To‘y, bayram yoki ehson marosimlarida tayyorlanadigan osh ushbu so‘zning semantik va madaniy yuklamasini yanada kengaytiradi. Shu jihatdan qaraganda, oshpazlik leksikasining tub qatlami tilning nafaqat tarixiy, balki madaniy yadrosini ham tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan firklar va mulohazalardan kelibc hiqib aytish mumkinki, o‘zbek tilida oshpazlik nomlarinign yasalish jarayoni 5 usulda amalga oshadi

(1-chizmaga qarang).



1.1-chizma. O‘zbek tilida oshpazlik nomlarining yasalish usullari

1.1-chizma. O‘zbek tilida oshpazlik nomlarining yasalish usullari

Xulosa.

O‘zbek tilidagi oshpazlik leksikasining shakllanishida tarixiy o‘zlashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayon tilning ochiq tizim ekanini, uning tashqi ta’sirlarni qabul qilish va ularni ichki imkoniyatlar asosida qayta ishlab, o‘z qatlamga moshlashtira olishini ko‘rsatadi. Natijada oshpazlik terminologiyasi nafaqat milliy, balki ko‘p madaniyatli tajribaning mahsuli sifatida shakllangan murakkab va boy tizimni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кубрякова Э. Части речи с когнитивной точки зрения. – М., 1978. – 256 б.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент, 2003. – 600 б.

3. Кошғарий М. Девону луғотит турк. 3 томлик. Т. I. – Тошкент, 1960.– 369 б.